IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: ZF04742431

**INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI HUZURIDAGI ILMIY-TEXNIK AXBOROT MARKAZI**

**CENTER FOR SCIENTIFIC AND TECHNICAL INFORMATION UNDER THE AGENCY OF INNOVATIVE DEVELOPMENT**

100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani
Universitet ko'chasi, 7

7 University street, Almazar district Tashkent
Republic of Uzbekistan, 100174

**01-15-591-son**
**25.08.2025-yil**

**Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalariga**
(ro'yxat bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son Farmoni 2-ilovasi 41-bandida nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish choralarini ko'rish vazifasi belgilangan.

Shu asosda, Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazining 2025-yil 13-avgustdagi 01-15-567-son xatiga muvofiq 20-avgust sanasiga qadar xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish holatini o'rganishga qaratilgan onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarida mavjud ehtiyojlar dastlabki tarzda aniqlangan.

Mazkur natijalar xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish borasidagi ehtiyojlar yanada chuqurroq o'rganilishini taqozo etayotganligi sababli, foydalanuvchilarning amaliy tajribasi va takliflarini batafsil tahlil qilish maqsadida **yangilangan onlayn so'rovnoma** tayyorlandi.

Shu munosabat bilan, Sizdan 2025-yil **29-avgust sanasiga qadar** ilovaga muvofiq tashkilotingizdagi xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va doktorantlarning yangilangan onlayn so'rovnomada faol ishtirokini ta'minlashda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

*So'rovnoma o'tkazish uchun mas'ul xodimning telefon raqami: +998971995151, +998944580708*

*Ilova 2 varaqda.*

**Direktor** ERI orqali imzolangan — Ilmiy-texnik axborot markazi **S.Nazirov**

Hujjat haqiqiyligi mobil qurilma yordamida QR-kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

Ijrochi: M.M.Mirraximov
Tel: +998971995151